



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 – yil yanvar - dekabr

E'tibor bering:

- 2019 - yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **79,2** %ni tashkil etdi.
- 2019 - yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) **10,0** birlikni tashkil qildi.
- 2019 - yilning yanvar - dekabrda **5447** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,0** martaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (41,0 %), sanoatda (26,5 %), qurilishda (8,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (7,3 %), yashash va ovqatlanishda (5,3 %), tashish va saqlashda (3,7 %) tashkil etilgan.

2019 - yil yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlar

	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	16975	21461	4486
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	2709	5447	2738
YaHM	%	80,0	79,2	-0,8
Sanoat	%	68,5	73,9	5,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	97,5	98,1	0,6
Investitsiya	%	25,6	54,2	28,6
Qurilish	%	91,8	94,7	2,9
Savdo	%	90,6	87,9	-2,7
Xizmatlar	%	69,5	66,3	-3,2
Yuk tashish	%	95,4	95,7	0,3
Yuk aylanmasi	%	90,4	92,8	2,4
Yo'lovchi tashish	%	97,6	96,5	-1,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,8	97,1	-0,7
Eksport	%	84,5	80,1	-4,4
Import	%	46,8	70,7	23,9

2019 - yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %



2019 - yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida - 1589 ta, Chust tumanida - 434 ta, Pop tumanida - 400 ta, Namangan tumanida - 392 ta, Uchq'o'rg'on tumanida - 386 ta, Uychi tumanida - 367 tani tashkil etgan.

Eng past ko'rsatkich Yangi qo'rg'on tumanida 268 tani tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

	Yanvar–dekabr 2018 - yil	Yanvar–dekabr 2019 - yil
Namangan viloyati	2709	5447
Mingbuloq	125	303
Kosonsoy	145	341
Namangan	170	392
Norin	151	319
Pop	138	400
To'raqo'rg'on	187	347
Uychi	188	362
Uchqo'rg'on	147	386
Chortoq	143	306
Chust	194	434
Yangiqo'rg'on	118	268
Namangan sh.	1003	1589



2019 - yil yanvar - dekabrda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridagi ulushi, %




2019 - yil yanvar - dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Namangan shahri - 29,2 %, Chust tumani - 8,0 %, Pop tumani - 7,3 %, Namangan tumani - 7,2 %, Uchq'o'rg'on tumani - 7,1 %, Uychi tumani - 6,6 %, To'raq'o'rg'on tumani - 6,4 % va Kosonsoy tumani - 6,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

	Yanvar-dekabr 2018 y.	Yanvar-dekabr 2019 y.
Jami	2709	5447
Qishloq, o'rmon va baliq, xo'jaligi	288	400
Sanoat	908	1443
Qurilish	213	464
Savdo	694	2234
Tashish va saqlash	140	201
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	118	289
Axborot va aloqa	44	72
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	86	50
Boshqa turdagi xizmatlar	218	294

Ma'lumot uchun: 2019 - yil yanvar - dekabrda kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p yangi tashkil etilgan iqtisodiy faoliyat turlari




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan hududlar, birlikda.

	yanvar- dekabr 2018 yil	yanvar- dekabr 2019 yil	Farqi (+-)
Namangan sh.	1000	1589	586
Chust tumani	194	434	240
Pop tumani	138	400	262
Namangan tumani	170	392	222
Uchqo'rg'on tumani	147	386	239
Uychi tumani	188	362	174

2019 - yilning yanvar-dekabrida kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p Namangan shahrida (1589 ta) yangi tashkil etildi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan hududlar, birlikda.





2019 yil yanvar-dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan
kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda*),




2019 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) bo'yicha hududlar kesimida eng ko'p ko'rsatkich Namangan shahrida 12,9, Namangan tumanida 12,8, Mingbuloq tumanida 11,4, Chust tumanida 10,5, Chortoq tumanida 9,1, Uchqo'rg'on tumanida 9,0 birlikni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich Pop tumanida 7,8 va To'raqo'rg'on tumanida 7,7 birlikni tashkil etib pastligicha qolmoqda.

* Kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari


2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha faoliyat
yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)*

2019 yil yanvar-dekabr




* Kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari

2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarini faoliyat ko'rsatayotganlardagi ulushi %



Quyida, 2019 - yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 73,9 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 98,1 %, qurilishda - 94,7 %, investitsiyada - 54,2%, savdoda - 87,9 %, eksportda - 80,1 %, importda - 70,7 % va xizmatlar sohasidagi – 66,3 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 - yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi




Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi Dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga, %

2019 - yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 79,2 %ni tashkil qildi. (2018 - yilning yanvar-dekabrda 80,0 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



2019 - yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Namangan viloyati	73,9	94,7	66,3	54,2
Mingbuloq	38,4	100,0	91,5	69,4
Kosonsoy	86,0	96,9	89,3	80,0
Namangan	87,1	98,3	97,3	91,0
Norin	92,4	100,0	94,6	87,6
Pop	52,4	73,0	83,3	62,2
To'raqo'rg'on	77,5	96,1	81,2	23,6
Uychi	95,5	100,0	96,5	87,8
Uchqo'rg'on	65,7	100,0	93,1	71,1
Chortoq	100,0	100,0	90,0	82,6
Chust	62,5	94,5	93,7	74,0
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	96,4	87,7
Namangan sh.	66,4	90,5	44,2	47,2


Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Chortoq va Yangiqo'rg'on (100,0 %), Uychi (95,5 %) hamda Norin (92,4 %) tumanlari tashkil etdi.

Qurilishda – Mingbuloq, Norin, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq xamda Yangiqo'rg'on (100,0 %), Namangan (98,3 %), Kosonsoy (96,9 %) va To'raqo'rg'on (96,1 %) tumanlari tashkil etdi.


Xizmatlar sohasida – Namangan (97,3 %), Uychi (96,5 %), Yangiqo'rg'on (96,4 %), Norin (94,6 %), Chust (93,7 %), Uchqo'rg'on (93,1 %) va Mingbuloq (91,5 %) tumanlari tashkil etdi.

Investitsiyada - Namangan (91,0 %), Uychi (87,8 %), Yangiqo'rg'on (87,7 %), Norin (87,6 %), Chortoq (82,6 %) va Kosonsoy (80,0 %) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2019 - yilning yanvar - dekabrda




**Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning,
jami eksport hajmidagi ulushi, %**




2019 - yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on va Kosonsoy tumanlarida - 100,0 %, Norin va Uychi tumanlarida - 99,9 %, Chortoq tumanida - 99,4 %, Uchqo'rg'on tumanida - 99,1 %, To'raqo'rg'on tumanida - 98,1 %, Namangan tumanida - 96,1 %ni, eng past ko'rsatkich Pop tumanida – 52,2 %ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmatlar)ning,
jami import hajmidagi ulushi, %**



2019 - yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmatlar)ning jami importdagi eng ko'p ulushi Norin va Chortoq tumanlarida - 100,0 %, Pop tumanida - 98,6 %, Uchqo'rg'on tumanida - 98,5 %, Kosonsoy tumanida - 98,4 %, Uychi tumanida - 97,2 %, Namangan tumanda -91,5 %ni, eng past ko'rsatkich esa Namangan shahrida - 68,4 %ni tashkil etdi.


2019 - yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (2572,0 mlrd. so'm), Uychi (795,1 mlrd. so'm), Namangan (777,5 mlrd. so'm) To'raqo'rg'on (718,2 mlrd. so'm) va Uchqo'rg'on (537,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Mingbuloq tumanida (47,6 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulush Yangiqorgon va Chortoq tumanlarida -100,0%, Uychi tumanida - 95,5%, Norin tumanida - 92,4%, Namangan tumanida - 87,1%, Kosonsoy tumanida - 86,0% ni tashkil etdi.


Aksincha, Mingbuloq tumanida (38,4%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.

2019 - yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (3358,3 mlrd. so'm), Chust (634,5 mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (613,7 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (612,1 mlrd. so'm), Kosonsoy (594,8 mlrd. so'm), Norin (526,2 mlrd. so'm) hamda Pop (517,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


2019 – yil yanvar–dekabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (743,5 mlrd. so'm), Uychi (341,2 mlrd. so'm), Kosonsoy (309,3 mlrd. so'm), Namangan (296,7 mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (248,9 mlrd. so'm), tumanlarida, eng kami hajm esa Norin (141,3 mlrd. so'm) va, Mingbuloq(158,9 mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Namangan shahri (1732,3 mlrd. so'm), Chust (482,9 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (369,1 mlrd.so'm), Namangan (366,5 mlrd.so'm), Pop (344,0 mlrd.so'm) va Chortoq (318,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar hajmining eng kamlari Mingbuloq (160,3 mlrd.so'm) va Norin(174,0 mlrd.so'm) tumanlarida ko'satilgan.


**2019 yil 4 - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha taqsimlanishi***




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil 4-chorakda kuzatuvda ishtirok etgan jami 786 kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi xizmatlar sohasida - 30,9 % (243 ta), savdoda - 28,5 % (224 ta), sanoatda - 25,1 % (197 ta), qurilishda - 10,6 % (83 ta), qishloq. o'rmon va baliq xo'jaligida - 4,9 % (39 ta)ni tashkil etdi.

* yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

2019 yil 4 - chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 yil 4 - chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil 4 - choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, barcha faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun qulay iqtisodiy ahvol joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning 4 - choragida 3 - chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi qurilish korxonalarida 0,3 punktga kamaydi.

O'tgan chorakka nisbatan eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli bo'lgan korxonalar tashkil etdi.

Oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumga ega bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarining 2019 yil 3 va 4 - choragi bo'yicha iqtisodiy ahvolni baholash, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil 4 - choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan barcha (savdodan tashqari) korxonalar uchun qulay iqtisodiy holat yaxshilandi va ularning bahosi o'tgan yilning mos davriga nisbatan oshdi.

Svdo faoliyati korxonalari o'rtasida umumiy iqtisodiy holatning ijobiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning 4 - choragida iqtisodiy faoliyatning deyarli barcha turlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy ahvoli qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli deb topilgan korxonalar tashkil qiladi.

**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2018 – 2019 yillar
4 - chorakdagi iqtisodiy ahvolini baholash,%**




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil 4 - choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan iqtisodiy vaziyatni yaqin uch oyda yaxshilashga ishongan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari ulushi - 3,4 punktga, savdo - 0,7 punktga, xizmatlar - 0,9 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, faoliyatning deyarli barcha turlari bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi barcha faoliyat sohalarida kamaydi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil 3 va 4 - choraklardagi iqtisodiy ahvolidning yaqin uch oyda baholanishi %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil 4 - choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha oshgan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari ulushi - 6,2 punktga, savdo - 0,6 punktga o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi barcha faoliyat sohalarida kamaydi.


**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarining
2018 - 2019 yillar 4 - chorakdagi iqtisodiy ahvolining
yaqin uch oyda baholanishi, %**






2019 yil 4 - choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 78 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 22 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 28,2%), qurilish – 7 ta (9,0%), savdo – 31 ta (39,7%) va xizmatlar – 13 ta (16,7%), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 5 ta (6,4%).


2019 yil 4 - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



2019 yil 4 - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 yil 4 - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning 4 - choragida qulay iqtisodiy holat xizmatlar korxonalarida yaxshilandi va joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan ishlarning yaxshilanishi va ularning bahosi 18,3 punktga, savdo korxonalarida - 16,3 punktga oshdi.

Joriy yilning 4 - choragida shu yilning 3 - choragiga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy ahvolni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha kamayish kuzatildi.

Eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli deb topilgan korxonalar tashkil qiladi.


2019 yil 3 va 4 - choraklardagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy ahvolini baholash, %



Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning 4 - choragida sanoat, savdo va xizmatlar sohasi korxonalarining qulay iqtisodiy holati yaxshilandi va ularning bahosi 2018 yilning 4 - choragiga nisbatan mos ravishda 19,1, 17,3 va 1,1 punktga ko'paydi.

Joriy yilning 4 - choragida 3 - chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.


2018 - 2019 yillar 4 - chorakdagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy ahvolini baholash, %



Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra 2019 yilning 4 - choragi joriy yilning o'tgan choragi bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha kamayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy ahvoli o'tgan chorakka nisbatan o'zgarishsiz qoladi deb hisoblaydigan korxonalarning ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha oshdi.

2019 yil 3 va 4 - choragida yangi tashkil etilgan korxonalarining yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra 2019 yilning 4 - choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalar ulushi - 22,5 punktga, xizmatlar sohasi korxonalar ulushi - 15,8 punktga oshdi.

Shu bilan birga sanoat korxonalar ulushi - 5,2 punktga, qurilish korxonalar ulushi - 9,6 punktga, va savdoda 9,5 punktga kamayganligi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy ahvoli o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblaydigan korxonalar ulushi xizmatlar sohasidan tashqari barcha faoliyat turlari bo'yicha ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvoli yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha kamayishi kuzatildi.

2018 -2019 yil 4 - choragida yangi tashkil etilgan korxonalarining yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash,%





Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi

Tel.: (0371) 230-84-76